Co-funded by the European Union

GREEN CAMPUS INITIATIVE

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA VA IQLIM O‘ZGARISHI MILLIY QO‘MITASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI **BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

“YASHIL KAMPUS”

STRATEGIYASI 2026 — 2030

GREENCAMUZ · ERASMUS+ CBHE · 101234907

TOSHKENT · 2026

ISHLAB CHIQILDI
“Yashil iqtisodiyotni ilgari surish va joriy etish” loyiha ofisi

"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

2026-yil "24"- Sentyabr

"KELISHILDI"
O'zbekiston Respublikasi
Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi

2026-yil "24"- Sentyabr

"ISHLAB CHIQILDI"
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi

2026-yil "24"- Sentyabr

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

"YASHIL KAMPUS" STRATEGIYASI

2026–2030 YILLAR UCHUN

Toshkent shahri, 2026-yil

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

"YASHIL KAMPUS" STRATEGIYASI

2026–2030 YILLAR UCHUN

I UMUMIY QOIDALAR

Ushbu O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining (keyingi o'rinlarda – Oliy maktab) "Yashil kampus" strategiyasi (keyingi o'rinlarda – Strategiya) Oliy maktab faoliyatiga ekologik barqarorlik tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish, energiya va boshqa resurslardan tejamkor foydalanish, ta'lim hamda malaka oshirish dasturlariga "yashil iqtisodiyot" va ESG tamoyillarini integratsiya qilish, shuningdek, tadbirkorlik va davlat boshqaruvi sohasida barqaror rivojlanish madaniyatini yuksaltirish maqsadida ishlab chiqilgan.

Oliy maktab 2001-yilda tashkil etilgan bo'lib, magistratura dasturlari, rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari orqali davlat organlari, davlat ishtirokidagi korxonalar va tadbirkorlik subyektlari uchun yetakchi kadrlar tayyorlaydi. Shu bois Strategiya katta kapital mablag' talab qiluvchi yirik infratuzilma loyihalariga emas, balki Oliy maktabning real moliyaviy-texnik imkoniyatlariga mos, kam xarajatli va tez natija beradigan chora-tadbirlarga hamda uning asosiy salohiyati – yashil iqtisodiyot, barqaror biznes va boshqaruv bo'yicha ta'lim, malaka oshirish va maslahat faoliyatiga tayanadi.

2026–2030-yillarga mo'ljallangan ushbu Strategiya Oliy maktabning barqaror rivojlanish siyosati, strategik maqsadlari, boshqaruv mexanizmlari va samaradorlik ko'rsatkichlarini belgilovchi institutsional hujjat hisoblanadi. Strategiyaning asosiy g'oyasi – Oliy maktabni tinglovchilar, davlat va biznes sektori vakillari uchun yashil transformatsiya bo'yicha namunaviy ta'lim maydoniga aylantirish, kampusdagi havo sifati monitoringi kabi amaliy loyihalardan "jonli laboratoriya" *(Living Lab)* sifatida foydalanish hamda biznes hamjamiyati bilan barqarorlik sohasidagi sheriklikni kengaytirishdan iborat.

II STRATEGIYANING ME'YORIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI

1 Milliy me'yoriy-huquqiy asoslari

Strategiyaning me'yoriy-huquqiy asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PQ-110-sonli Qarori, Milliy "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Yashil makon" umummilliy loyihasi hamda Atrof-muhit muhofazasi va ekologik

madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi tashkil etadi. Strategiya ushbu hujjatlarda belgilangan vazifalarni Oliy maktab darajasida, uning ta'lim profili va imkoniyatlariga mos ravishda amalga oshirishga qaratilgan.

2 Xalqaro metodologik asoslari va GreenCamUz loyihasi doirasidagi majburiyatlar

Strategiyaning metodologik asosi sifatida Erasmus+ dasturining Oliy ta'lim salohiyatini oshirish (CBHE) yo'nalishi doirasidagi 101234907-sonli GreenCamUz – "Yashil kampus tashabbusi: O'zbekistonda oliy ta'limga barqarorlikni joriy etish" loyihasi Grant shartnomasi, Yevropa Ittifoqining "Yashil bitim" *(European Green Deal)* tamoyillari hamda loyiha hamkorlari – Opole Texnologiya Universiteti (Polsha), Vilnius Gediminas Texnika Universiteti (Litva) va Karabuk Universiteti (Turkiya) tajribasi inobatga olindi.

Oliy maktab loyiha konsorsiumida WP2 – "Yashil kampus strategiyalarini ishlab chiqish" ish paketining yetakchi hamkori hisoblanadi. Grant shartnomasiga muvofiq Oliy maktab zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklangan bo'lib, ular Strategiyaning birinchi navbatdagi vazifalari sifatida belgilanadi:

- "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish" *(Green Economy and Sustainable Development)* fanini magistratura dasturlariga kiritish;
- davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat organlari xodimlari uchun "Yashil transformatsiya va o'sish" *(Green transition and growth)* qisqa muddatli o'quv kursini (3 kredit) joriy etish, har yili kamida 25 nafar tinglovchini qamrab olish;
- WP5 doirasida "Havo sifatini monitoring qilish" pilot loyihasini amalga oshirish va uning natijalarini hujjatlashtirish;
- Oliy maktabda Yevropa hamkorlari ishtirokida loyihaning uchinchi o'quv tadbirini (Camp 3) tashkil etish va professor-o'qituvchilar hamda ma'muriy xodimlar malakasini oshirish;
- "Yashil kampus elchilari" dasturi bo'yicha kamida 20 nafar ishtirokchi bilan seminarlar o'tkazish;
- biznes va jamoat tashkilotlari bilan kamida 2 ta hamkorlik shartnomasini imzolash.

Grant shartnomasiga ko'ra pilot loyihalarni amalga oshirish xarajatlari (o'qitish xarajatlaridan tashqari) hamkor oliy ta'lim muassasalari hisobidan qoplanadi. Shu sababli Strategiyadagi infratuzilmaviy chora-tadbirlar Oliy maktabning joriy byudjeti doirasida bajarilishi mumkin bo'lgan hajmda belgilangan.

Strategiya UI GreenMetric metodologiyasi va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, ko'rsatkichlar tizimi kelgusida xalqaro reytinglarda ishtirok etish uchun zarur ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qiladi.

3 BMT Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) muvofiqligi

Oliy maktab o'z ta'lim dasturlari, malaka oshirish kurslari, ilmiy-amaliy faoliyati va kampus boshqaruvi orqali quyidagi BRMlarga erishishga hissa qo'shadi:

- BRM 4: Sifatli ta'lim
- BRM 6: Toza suv va sanitariya
- BRM 7: Arzon va toza energiya
- BRM 8: Munosib mehnat va iqtisodiy o'sish
- BRM 12: Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish
- BRM 13: Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish
- BRM 17: Barqaror rivojlanish yo'lidagi hamkorlik.

III STRATEGIYANING ASOSIY MAQSADLARI

Strategiyaning maqsadlari Oliy maktabning ta'lim profili, kampus hajmi va resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilangan hamda quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

- **"Yashil boshqaruv" tizimini joriy etish.** Mavjud tuzilmalar doirasida Yashil kampus qo'mitasi va mas'ul koordinatorni belgilash, ekologik siyosatni tasdiqlash hamda resurslar sarfini muntazam hisobga olish tizimini yo'lga qo'yish.
- **Resurslardan tejamkor foydalanish.** Energiya tejamkor LED yoritish tizimlariga o'tish, suv tejovchi armaturalar o'rnatish, chiqindilarni saralab yig'ish va qayta ishlashga topshirishni tashkil etish.
- **Qog'ozsiz boshqaruvni kengaytirish.** Ichki hujjat aylanishi va o'quv jarayoni hujjatlarini elektron shaklga o'tkazish orqali qog'oz sarfini kamaytirish.
- **Havo sifati monitoringi pilot loyihasini amalga oshirish.** Havo sifatini kuzatish tizimini joriy etish hamda olingan ma'lumotlardan boshqaruv qarorlari va o'quv jarayonida foydalanish.
- **Ta'lim va malaka oshirish dasturlarini yashil iqtisodiyot bilan boyitish.** Magistratura dasturlari hamda davlat organlari va davlat ishtirokidagi korxonalar xodimlari uchun kurslarga barqaror rivojlanish, ESG va yashil transformatsiya mazmunini kiritish.
- **Yashil tadbirkorlik va sheriklikni rivojlantirish.** Biznes hamjamiyati, davlat va jamoat tashkilotlari bilan barqarorlik sohasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, barqaror biznes amaliyotlarini targ'ib qilish.
- **Ekologik madaniyatni yuksaltirish.** "Yashil kampus elchilari" dasturi va ekologik tadbirlar orqali tinglovchilar va xodimlarni yashil tashabbuslarga faol jalb etish.

IV STRATEGIYANING ASOSIY TAMOYILLARI

Barqarorlik – institutsional qadriyat sifatida. Oliy maktab ekologik barqarorlikni o'z faoliyatining ajralmas qismi va ta'lim sifatining tarkibiy elementi sifatida qabul qiladi.

Ta'limga integratsiya ustuvorligi. Oliy maktab uchun eng katta ta'sir kuchi – kelajak rahbarlari va tadbirkorlarni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida tayyorlashdir. Shu bois o'quv dasturlariga barqarorlik mazmunini kiritish infratuzilmaviy o'zgarishlar bilan teng ustuvorlikka ega.

"Kampus – jonli laboratoriya". Kampusdagi havo sifati, energiya va resurs sarfi ma'lumotlari tinglovchilar uchun amaliy keyslar, loyiha ishlari va boshqaruv qarorlarini tahlil qilish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Realizm va kam xarajatli yechimlar ustuvorligi. Maqsadlar Oliy maktabning real imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi; birinchi navbatda katta investitsiya talab qilmaydigan tashkiliy va texnik chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

O'lchanuvchanlik va bosqichma-bosqichlik. Har bir maqsad bazaviy qiymat, yillik maqsadli ko'rsatkich va ijro muddati bilan ta'minlanadi; monitoring natijalariga ko'ra ko'rsatkichlar asosli ravishda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Kollektiv ishtirok. Strategiyani amalga oshirishga ma'muriyat, professor-o'qituvchilar, tinglovchilar, xo'jalik xizmatlari va tashqi hamkorlar keng jalb etiladi.

Shaffoflik. Oliy maktab Strategiya ijrosi to'g'risida har yili qisqa Barqaror rivojlanish hisobotini tayyorlaydi va uni rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

V STRATEGIYANING USTUVOR YO'NALISHLARI

Strategiya maqsadlari o'zaro bog'liq yettita ustuvor yo'nalish doirasida amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari va mas'ul bo'linmalar 1-ilova (Yo'l xaritasi)da, yillar kesimidagi miqdoriy ko'rsatkichlar esa 2-ilova (Maqsadli ko'rsatkichlar)da belgilangan.

1 Yashil boshqaruv va institutsional menejment

Strategiya ijrosini muvofiqlashtirish uchun prorektor raisligida Yashil kampus qo'mitasi tuziladi va mavjud xodimlar orasidan Yashil kampus koordinatori belgilanadi. Qo'mita ekologik siyosatni tasdiqlash, resurslar sarfi bo'yicha ma'lumotlarni to'plash, yillik

hisobotni tayyorlash va maqsadli ko'rsatkichlar ijrosini nazorat qilish vazifalarini bajaradi. Alohida tarkibiy bo'linma tashkil etish Strategiyaning o'rta muddatli baholash natijalariga ko'ra ko'rib chiqiladi.

2 Resurs tejamkor kampus: energiya, suv va chiqindilar

Kommunal xizmatlar hisob-kitoblari asosida 2025-yilda Oliy maktabda 439,4 ming kVt·soat elektr energiyasi va 4 049,7 m^3 suv sarflangan, 94,5 m^3 chiqindi olib chiqilgan. 2026-yilda energiya tejash maqsadida 410 dona energiya tejamkor yoritgich (50 ta tashqi LED panel, 300 ta LED panel va 60 ta svetodiod lampa) o'rnatilishi rejalashtirilgan. Ushbu yo'nalish doirasida yoritish tizimi bosqichma-bosqich to'liq energiya tejamkor texnologiyasiga o'tkaziladi, uskunalar va konditsionerlardan oqilona foydalanish qoidalari qayta ko'rib chiqiladi va yangilanadi, sanitariya uzellarida suv tejovchi uskunalar o'rnatiladi, chiqindilarni saralab yig'ish va makulatura hamda plastikni qayta ishlashga topshirish tizimi yo'lga qo'yiladi.

3 Qog'ozsiz va raqamli boshqaruv

Ichki hujjat aylanishi (buyruqlar, xizmat xatlari, arizalar) elektron hujjat aylanishi tizimi va elektron raqamli imzo orqali yuritilishi kengaytiriladi. O'quv jarayoniga oid hujjatlar – sillabuslar, topshiriqlar va baholash natijalari – elektron o'quv platformasi orqali yuritiladi. Natijada 2030-yilga qadar qog'oz sarfini 85 foizga kamaytirish ko'zda tutiladi.

4 Havo sifati monitoringi (WP5 pilot loyihasi)

GreenCamUz loyihasi doirasida Oliy maktab "Havo sifatini monitoring qilish" pilot loyihasini amalga oshiradi. Oliy maktab hududida PM2.5 va CO_2 ko'rsatkichlarini o'lchovchi sensorlar o'rnatiladi, ma'lumotlar sodda raqamli panel *(Green Dashboard)* orqali aks ettiriladi. Monitoring natijalari xonalarni shamollatish rejimini tartibga solish, tinglovchilar va xodimlar uchun sog'lom muhit yaratish hamda magistratura kurslarida ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv keyslari sifatida foydalaniladi. Pilot tajribasi loyiha doirasidagi "Yaxshi amaliyotlar" to'plamiga kiritiladi.

5 Yashil ta'lim va malaka oshirish

Barqaror rivojlanish tamoyillari Oliy maktab ta'lim dasturlariga izchil integratsiya qilinadi. Grant shartnomasiga muvofiq ikkita yangi kurs – "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish" (magistratura) hamda davlat organlari va davlat ishtirokidagi korxonalar xodimlari uchun "Yashil transformatsiya va o'sish" kursi joriy etiladi. Keyinchalik ESG boshqaruvi, yashil moliya va barqaror loyihalarni boshqarish mavzularidagi modullar boshqa magistratura va malaka oshirish dasturlariga bosqichma-bosqich kiritiladi. Professor-o'qituvchilar va ma'muriy xodimlar loyiha doirasidagi o'quv tadbirlarida malaka oshiradi.

6 Yashil tadbirkorlik va sheriklik

Oliy maktabning biznes va tadbirkorlik sohasidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, barqaror biznes amaliyotlari va yashil tadbirkorlikni targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Biznes va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik shartnomalari imzolanadi, ESG bo'yicha seminar va keys-sessiyalar tashkil etiladi. Oliy maktab loyiha doirasidagi yillik Yashil kampus konferensiyalarida va virtual bilim almashish platformasida faol ishtirok etadi.

7 Yashil kampus elchilari va ekologik madaniyat

Tinglovchilar va xodimlar orasidan "Yashil kampus elchilari" tanlanadi va o'qitiladi. Elchilar kampusdagi ekologik tashabbuslarni muvofiqlashtirish, resurs tejash qoidalarini targ'ib qilish va tadbirlarni tashkil etishda ishtirok etadi. Har yili "Yashil hafta" loyihasi doirasidagi ko'kalamzorlashtirish aksiyalari va boshqa ekologik tadbirlar o'tkaziladi.

VI STRATEGIYANING AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

Strategiya to'rt bosqichda amalga oshiriladi:

1 1-BOSQICH · 2026-YIL

Institutsional asoslarni shakllantirish

Yashil kampus qo'mitasi tuziladi va koordinator belgilanadi, ekologik siyosat tasdiqlanadi. Kommunal xizmatlar ma'lumotlari asosida bazaviy audit o'tkazilib, maqsadli ko'rsatkich bo'yicha boshlang'ich qiymatlar qayd etiladi. Energiya tejamkor yoritgichlarni o'rnatish boshlanadi, biznes va jamoat tashkilotlari bilan dastlabki 2 ta hamkorlik shartnomasi imzolanadi, yangi kurslar o'quv rejalariga kiritiladi.

2 2-BOSQICH · 2027–2028-YILLAR

Pilot loyihalar va amaliy ijro

Havo sifati monitoringi pilot loyihasi ishga tushiriladi va natijalari hujjatlashtiriladi. "Yashil kampus elchilari" dasturi amalga oshiriladi, yangi kurslar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi, chiqindilarni saralab yig'ish va qog'ozsiz boshqaruv kengaytiriladi. Birinchi yillik Barqaror rivojlanish hisoboti e'lon qilinadi. Ushbu bosqich GreenCamUz loyihasining amalga oshirish davriga to'g'ri keladi.

3 3-BOSQICH · 2029-YIL

O'rta muddatli baholash va kengaytirish

Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta muddatli tahlil o'tkaziladi va zarurat bo'lganda maqsadli qiymatlarga tuzatishlar kiritiladi. Muvaffaqiyatli amaliyotlar Oliy maktabning barcha binolari va bo'linmalariga kengaytiriladi. UI GreenMetric reytingida ishtirok etish maqsadga muvofiqligi ko'rib chiqiladi.

4 4-BOSQICH · 2030-YIL

Institutsionallashtirish va yangi strategik siklga o'tish

Ko'rsatkichlarning bazaviy qiymatlarga nisbatan yakuniy baholanishi o'tkaziladi, eng yaxshi amaliyotlar hujjatlashtiriladi va 2031–2035-yillarga mo'ljallangan navbatdagi strategiyani ishlab chiqish boshlanadi. Yashil kampus boshqaruvi grant mablag'laridan mustaqil ravishda Oliy maktabning doimiy funksiyasi sifatida mustahkamlanadi.

VII KUTILAYOTGAN NATIJALAR VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI

Strategiyani amalga oshirish natijasida Oliy maktabda sodda va samarali ekologik boshqaruv tizimi shakllanadi, resurslar sarfi kamayadi, ta'lim va malaka oshirish dasturlarida yashil iqtisodiyot mazmuni mustahkam o'rin egallaydi, biznes hamjamiyati bilan barqarorlik sohasidagi hamkorlik kengayadi. Strategiya ijrosini baholash uchun 2030-yilga qadar erishiladigan quyidagi asosiy ko'rsatkichlar belgilangan:

2030-yilga qadar erishilishi ko'zda tutilgan asosiy maqsadli ko'rsatkichlar

T/r	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Bazaviy qiymat	2030-yilga mo'ljallangan maqsad
1.	Yillik elektr energiyasi iste'moli	kVt·soat	439 368 (2025-yil)	2026-yil bazaviy qiymatiga nisbatan 10% ga kamaytirish
2.	Energiya tejamkor yoritgichlar ulushi	%	Audit bo'yicha (2026-yilda 410 dona o'rnatiladi)	Kamida 80%
3.	Yillik suv iste'moli	m^3	4 049,7 (2025-yil)	2026-yil bazaviy qiymatiga nisbatan 10% ga kamaytirish
4.	Yillik chiqindi hajmi	m^3	94,5 (2025-yil)	2026-yil bazaviy qiymatiga nisbatan 5% ga kamaytirish
5.	Chiqindilarni alohida (saralab) yig'ish darajasi	%	Audit bo'yicha	Kamida 30%

T/r	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Bazaviy qiymat	2030-yilga mo'ljallangan maqsad
6.	Elektron shakldagi ichki hujjat aylanishi ulushi	%	Audit bo'yicha	Kamida 85%
7.	Havo sifati sensorlari o'rnatilgan nuqtalar	dona	0	2 ta
8.	Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga oid kurslar	dona	0	Kamida 3 ta
9.	Faol "Yashil kampus elchilari" soni	kishi	0	Kamida 30 nafar
10.	Biznes va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik shartnomalari	dona	0	Kamida 5 ta

Ushbu 10 ta ko'rsatkich Oliy maktab yashil transformatsiyasining asosiy indikatorlari hisoblanadi. Ularning hisoblash uslubiyoti, monitoring chastotasi va 2027–2030-yillar kesimidagi bosqichma-bosqich qiymatlari, shuningdek qo'shimcha ko'rsatkichlar Strategiyaning 2-ilovasi – Maqsadli ko'rsatkichlarda belgilangan. Bazaviy qiymatlar 2025-yil kommunal xizmatlar hisob-kitoblari asosida keltirilgan bo'lib, 2026-yil yakunidagi audit natijalariga ko'ra aniqlashtiriladi.

VIII YAKUNIY QOIDALAR

Ushbu Strategiya Oliy maktabning ekologik transformatsiyasi uchun dasturilamal bo'lib xizmat qiladi va milliy ekologik qonunchilik talablari, GreenCamUz loyihasi doirasidagi majburiyatlar hamda xalqaro "yashil kampus" tajribasi asosida amalga oshiriladi.

Strategiya ijrosini muvofiqlashtirish va monitoringini olib borish Yashil kampus qo'mitasi, koordinator hamda Oliy maktabning mas'ul tarkibiy bo'linmalari zimmasiga yuklatiladi. Strategiya ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot Oliy maktab Kengashiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

Zarurat tug'ilganda Strategiyaga hamda uning ilovalariga (1 va 2-ilovalar) Oliy maktabning moliyaviy-resurs imkoniyatlari, monitoring natijalari hamda qonunchilikdagi o'zgarishlarga muvofiq Oliy maktab Kengashi qarori bilan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABINING 2026–2030-YILLARGA MO'LJALLANGAN "YASHIL KAMPUS" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA

YO'L XARITASI

2026–2030 YILLAR UCHUN

1-ilova

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochi
1	**Yashil kampus qo'mitasi (YaKQ) va koordinatorini belgilash**	Ma'muriyat, kafedralar, tinglovchilar va xo'jalik xizmati vakillaridan iborat YaKQ tuzish. Alohida shtat birligi yaratmasdan, mavjud xodimlar orasidan Yashil kampus koordinatorini tayinlash. 1. YaKQ tarkibi va Nizomini rektor buyrug'i bilan tasdiqlash; qo'mita yig'ilishlarini har chorakda o'tkazish. 2. Yashil kampus koordinatorini mavjud shtat doirasida qo'shimcha vazifa sifatida tayinlash va uning vazifalarini belgilash. 3. Oliy maktabning ekologik siyosati (bayonoti)ni tasdiqlash va rasmiy veb-saytda e'lon qilish.	2026-yil 4-chorak	Rektor / Prorektor
2	**Bazaviy auditni o'tkazish**	Kommunal xizmatlar hisob-kitoblari va inventarizatsiya asosida 2-ilovadagi 19 ta ko'rsatkich bo'yicha bazaviy qiymatlarni aniqlash. 1. 2025–2026-yillar bo'yicha elektr energiyasi (2025-yil – 439,4 ming kVt·soat), suv (4 049,7 m^3) va chiqindi (94,5 m^3) ma'lumotlarini tizimlashtirish; 2026-yil yakuni bo'yicha bazaviy qiymatlarni rasman qayd etish. 2. Yoritgichlar, sanitariya uzellari va suv hisoblagichlari (hozirda 2 ta) inventarizatsiyasini o'tkazish. 3. Tinglovchilar va xodimlar o'rtasida ekologik xabardorlik bo'yicha boshlang'ich so'rovnoma o'tkazish (loyiha yakunida takroriy so'rovnoma bilan taqqoslash uchun).	2026-yil 4-chorak	YaKQ koordinatori, Xo'jalik bo'limi, Buxgalteriya
3	**Energiya tejash choralarini amalga oshirish**	Katta investitsiya talab qilmaydigan energiya tejash choralarini bosqichma-bosqich joriy etish. 1. 410 dona energiya tejamkor yoritgich (50 ta tashqi LED panel, 300 ta LED panel, 60 ta svetodiod lampa) o'rnatish; 2030-yilgacha energiya tejamkor yoritgichlar ulushini 80% ga yetkazish. 2. Konditsioner va isitish tizimlaridan foydalanish tartibini, ish vaqtidan keyin yoritish va uskunalarni o'chirish qoidalarini qayta ko'rib chiqish va yangilash. 3. Elektr energiyasi sarfini oylik kuzatib borish va natijalarini YaKQ yig'ilishlarida ko'rib chiqish.	2027–2030-yillar	Xo'jalik bo'limi / YaKQ

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochi
4	**Suvni tejash va chiqindilarni boshqarish tizimini joriy etish**	Audit natijalariga asoslanib suv tejash va chiqindilarni saralab yig'ish choralarini amalga oshirish. 1. Sanitariya uzellarida suv tejovchi kran va uskunalarni bosqichma-bosqich o'rnatish (2030-yilgacha 60%); sizilmalarni aniqlash va bartaraf etish. 2. Qog'oz, plastik va boshqa chiqindilar uchun saralab yig'ish konteynerlarini o'rnatish; makulatura va plastikni qayta ishlash tashkilotlariga topshirish bo'yicha shartnoma tuzish. 3. Oliy maktab tadbirlarida bir martalik plastik idishlardan foydalanishni cheklash.	2027–2030-yillar	Xo'jalik bo'limi / YaKQ
5	**Qog'ozsiz boshqaruvni kengaytirish**	Ichki hujjat aylanishi va o'quv jarayoni hujjatlarini elektron shaklga o'tkazish orqali 2030-yilgacha qog'oz sarfini 85% ga kamaytirish. 1. Ichki hujjatlar (buyruqlar, xizmat xatlari, arizalar) aylanishini elektron hujjat aylanishi tizimi va ERI orqali yuritishni kengaytirish. 2. Sillabuslar, topshiriqlar va baholash natijalarini elektron o'quv platformasi orqali yuritish. 3. Chop etish qurilmalarida ikki tomonlama chop etishni standart sozlama sifatida belgilash va qog'oz xaridini hisobga olib borish.	2027–2030-yillar	Axborot texnologiyalari bo'limi / Devonxona / YaKQ
6	**WP5 pilot loyihasi: havo sifati monitoringini joriy etish**	GreenCamUz loyihasi doirasida Oliy maktabning pilot loyihasi sifatida havo sifatini monitoring qilish tizimini o'rnatish va natijalarini hujjatlashtirish. 1. 2 ta havo sifati sensorini (PM2.5, CO_2) o'rnatish; bazaviy havo sifati ko'rsatkichlarini belgilash. 2. Ma'lumotlarni sodda raqamli panel (Green Dashboard) orqali veb-saytda yoki kampusdagi ekranda aks ettirish. 3. Pilot metodologiyasi, xarajatlari va natijalarini D5.1 hisobotiga hamda D5.2 "Yaxshi amaliyotlar" to'plamiga taqdim etish; monitoring ma'lumotlaridan magistratura kurslarida keys sifatida foydalanish.	M12–M24 (2026–2027-yillar)	YaKQ koordinatori / AT bo'limi
7	**Yashil ta'lim va malaka oshirish dasturlarini joriy etish**	Grant shartnomasida belgilangan kurslarni o'quv jarayoniga kiritish va xodimlar malakasini oshirish. 1. "Yashil iqtisodiyot va barqaror rivojlanish" fanini magistratura dasturlariga fan sifatida 2026/2027-o'quv yilidan kiritish. 2. Davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat organlari xodimlari uchun "Yashil transformatsiya va o'sish" qisqa muddatli kursini joriy etish; yiliga kamida 25 nafar tinglovchini qamrab olish va kurs yakunida so'rovnoma o'tkazish. 3. Oliy maktabda loyihaning 3-o'quv tadbirini (Camp 3, M14) tashkil etish; kamida 12 nafar professor-o'qituvchi va ma'muriy xodim malakasini oshirishini ta'minlash.	2026–2030-yillar	O'quv-uslubiy boshqarma / Kafedralar / YaKQ

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Mas'ul ijrochi
8	**"Yashil kampus elchilari" dasturini amalga oshirish**	Tinglovchilar va xodimlar orasidan Yashil kampus elchilarini tanlash, o'qitish va faollashtirish. 1. Kamida 20 nafar ishtirokchi bilan Yashil kampus elchilari seminarlarini o'tkazish (D4.2, M18–M20); faol elchilar sonini 2030-yilgacha 30 nafarga yetkazish. 2. Har yili "Yashil hafta" loyihasi doirasidagi ko'kalamzorlashtirish aksiyalarini tashkil etish. 3. Elchilar va xodimlarning loyiha virtual bilim almashish platformasida (D6.1) ro'yxatdan o'tishi va faol ishtirokini ta'minlash.	2027-yil (M18–M20) va har yili	YaKQ / Yoshlar bilan ishlash bo'yicha mas'ul
9	**Biznes va jamoatchilik bilan yashil sheriklikni rivojlantirish**	Oliy maktabning biznes va tadbirkorlik sohasidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, barqarorlik sohasida hamkorlikni kengaytirish. 1. Biznes va jamoat tashkilotlari bilan kamida 2 ta hamkorlik shartnomasini imzolash (D6.2, 2026-yil); 2030-yilgacha shartnomalar sonini 5 taga yetkazish. 2. Yashil tadbirkorlik va ESG bo'yicha seminar yoki keys-sessiyalarni tashkil etish. 3. Loyihaning yillik Yashil kampus konferensiyalarida ishtirok etish va Oliy maktab tajribasini taqdim etish.	2026–2030-yillar	Xalqaro hamkorlik bo'limi / YaKQ
10	**Yillik Barqaror rivojlanish hisobotini tayyorlash**	O'tgan kalendar yilni qamrab oluvchi qisqa hisobotni har yili tayyorlash va e'lon qilish. 1. Yillik ma'lumotlarni to'plash; har bir ko'rsatkich holatini baholash. 2. Hisobotni Oliy maktab veb-saytida e'lon qilish va GreenCamUz konsorsiumiga (WP2) taqdim etish. 3. Soddalashtirilgan Scope 1 va 2 emissiyalarini elektr energiyasi va gaz sarfi asosida hisoblash (2027-yildan).	Har yili 1-chorak (birinchi hisobot – 2027-yil)	YaKQ / Matbuot xizmati
11	**O'rta muddatli va yakuniy baholash**	Strategiya ijrosini tahlil qilish, zarurat bo'lganda ko'rsatkichlarni qayta ko'rib chiqish va keyingi strategik siklga tayyorgarlik ko'rish. 1. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'rta muddatli tahlil o'tkazish va ularga o'zgartirish rejalarini ishlab chiqish; UI GreenMetric reytingida ishtirok etish maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqish. 2. Eng yaxshi natija bergan 2–3 ta amaliyot (havo sifati monitoringi, energiya tejash, yashil ta'lim) bo'yicha keys-stadilar tayyorlash va veb-saytda e'lon qilish. 3. 2030-yilda yakuniy baholashni o'tkazish va 2031–2035-yillarga mo'ljallangan strategiya loyihasini ishlab chiqishni boshlash.	2029-yil 1-chorak; 2030-yil 4-chorak	YaKQ

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABINING "YASHIL KAMPUS" STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA

MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

2026–2030 YILLAR UCHUN

2-ilova

T/r	Baholash ko'rsatkichlari	Hisoblash / O'lchash uslubi	O'lchov birligi	Monitoring chastotasi	Bazaviy qiymat	2027	2028	2029	2030
ENERGIYA									
1	**Yillik elektr energiyasi iste'moli**	Kommunal hisob-fakturalar bo'yicha yillik jami sarf. 2027–2030-yillar ustunlarida – 2026-yil bazaviy qiymatiga nisbatan kamaytirish	kVt·soat	Oylik / yillik	2025-yil fakt: 439 368; 2026-yil reja: 702 750*	−2%	−4%	−7%	−10%
2	**Energiya tejamkor yoritgichlar ulushi**	(energiya tejamkor yoritgichlar soni / jami yoritgichlar soni) × 100	%	Yillik	Audit bo'yicha	50%	60%	70%	80%
SUV RESURSLARI									
3	**Yillik suv iste'moli**	Kommunal hisob-fakturalar bo'yicha yillik jami sarf. 2027–2030-yillar ustunlarida – 2026-yil bazaviy qiymatiga nisbatan kamaytirish	m^3	Oylik / yillik	2025-yil fakt: 4 049,7; 2026-yil reja: 4 009,3	−2%	−4%	−7%	−10%
4	**Suv tejovchi uskuna o'rnatilgan sanitariya uzellari ulushi**	(Sensorli/tejamkor kranlar o'rnatilgan uzellar / jami uzellar) × 100	%	Yillik	Audit bo'yicha	20%	35%	50%	60%
CHIQINDILARNI BOSHQARISH									
5	**Yillik chiqindi hajmi**	Maxsus korxona hisob-fakturalari bo'yicha olib chiqilgan chiqindi hajmi. 2027–2030-yillar ustunlarida – 2026-yil bazaviy qiymatiga nisbatan kamaytirish	m^3	Oylik / yillik	2025-yil fakt: 94,5	0%	−2%	−4%	−5%

T/r	Baholash ko'rsatkichlari	Hisoblash / O'lchash uslubi	O'lchov birligi	Monitoring chastotasi	Bazaviy qiymat	2027	2028	2029	2030
6	Chiqindilarni alohida (saralab) yig'ish darajasi	(Saralab yig'ilgan va qayta ishlashga topshirilgan chiqindi / jami chiqindi) × 100	%	Yillik	Audit bo'yicha	10%	20%	25%	30%
QOG'OZSIZ BOSHQARUV									
7	Elektron shakldagi ichki hujjat aylanishi ulushi	(Elektron tizim orqali rasmiylashtirilgan ichki hujjatlar / jami ichki hujjatlar) × 100	%	Yillik	Audit bo'yicha	60%	70%	80%	85%
8	Qog'oz sarfining kamayishi	Yillik xarid qilingan qog'oz (pachka) – 2026-yil bazaviy qiymatiga nisbatan o'zgarish	%	Yillik	Audit bo'yicha	−5%	−10%	−20%	−30%
HAVO SIFATI MONITORINGI (WP5 PILOT LOYIHASI)									
9	Havo sifati sensorlari o'rnatilgan nuqtalar soni	PM2.5 va CO_2 o'lchovchi sensorlar o'rnatilgan joylar soni	dona	Yillik	0	1	1	0	0
TA'LIM VA MALAKA OSHIRISH									
10	Barqaror rivojlanish va yashil iqtisodiyotga oid kurslar soni	Magistratura va malaka oshirish dasturlariga kiritilgan fan/kurslar (Grant shartnomasi D3.1: 2 ta kurs)	dona	Yillik	0	1	2	2	1
11	Yashil kurslar tinglovchilari soni	Yil davomida ushbu kurslarni o'zlashtirgan tinglovchilar (Grant shartnomasi D3.2: yiliga 25 nafar)	kishi/yil	Yillik	0	25	35	45	55
12	Malaka oshirgan professor-o'qituvchilar va xodimlar	Barqarorlik bo'yicha o'quv tadbirlarida qatnashgan PO' va ma'muriy xodimlar (kumulyativ)	kishi	Yillik	0	12	15	20	25
13	Faol "Yashil kampus elchilari" soni	Maxsus tayyorgarlikdan o'tgan faol tinglovchi va xodim-elchilar (Grant shartnomasi D4.2: kamida 20 nafar)	kishi	Yillik	0	20	25	30	30
14	Ekologik va ma'rifiy tadbirlar soni	"Yashil hafta", ESG seminarlari va boshqa ommaviy tadbirlar	soni/yil	Yillik	—	2	2	3	3

T/r	Baholash ko'rsatkichlari	Hisoblash / O'lchash uslubi	O'lchov birligi	Monitoring chastotasi	Bazaviy qiymat	2027	2028	2029	2030
HAMKORLIK, IQLIM VA BOSHQARUV									
15	**Biznes va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlik shartnomalari**	Barqarorlik sohasida imzolangan amaldagi shartnomalar soni (kumulyativ; Grant shartnomasi D6.2: 2 ta)	dona	Yillik	2026-yil: 2	2	3	4	5
16	**Soddalashtirilgan 1 va 2-qamrov (Scope 1 & 2) bo'yicha emissiyalar (Toshkent sh.)**	(Gaz yoqish + sotib olingan elektr energiyasi) × emissiya koeffitsiyentlari. Dastlab "taxminiy" hisob	tCO_2e/yil	Yillik	2026-yil taxminiy hisobi	taxminiy hisob	−3%	−6%	−10%
17	**Barqaror rivojlanish hisobotining e'lon qilinishi**	Hisobot kalendar yili tugaganidan so'ng 3 oy ichida veb-saytda e'lon qilinadi	Ha/Yo'q	Yillik	—	Ha	Ha	Ha	Ha

** Bazaviy qiymatlar Oliy maktabning 2025-yil kommunal xizmatlar hisob-kitoblari va 2026-yil byudjet rejasi asosida keltirilgan. 2026-yil rejasidagi elektr energiyasi va chiqindi hajmi 2025-yil faktidan sezilarli yuqori bo'lgani sababli, foizli maqsadlar 2026-yil yakunidagi haqiqiy (fakt) qiymatga nisbatan hisoblanadi va Yo'l xaritasining 2-bandidagi audit natijalariga ko'ra aniqlashtiriladi.*

Ushbu maqsadli ko'rsatkichlar matrisi Strategiyaning V bo'limidagi 7 ta ustuvor yo'nalish va VI bo'limidagi amalga oshirish bosqichlarini miqdoriy baholash uchun UI GreenMetric metodologiyasi hamda GreenCamUz loyihasi Grant shartnomasi (101234907) talablari asosida ishlab chiqilgan. Ko'rsatkichlar Strategiyaning VII bo'limida keltirilgan 10 ta asosiy strategik ko'rsatkich bilan bevosita bog'langan.

Maqsadli qiymatlar Oliy maktabning resurs imkoniyatlaridan kelib chiqib mo'tadil darajada belgilangan bo'lib, 2029-yildagi o'rta muddatli baholash natijalariga ko'ra oshirilishi yoki qayta ko'rib chiqilishi mumkin.